

**“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTUR MAVZULARI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Rasmiy statistikada ma'muriy ma'lumotlar sifatini baholash milliy tizimini joriy etish metodologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - BMTning Milliy sifatni ta'minlash asoslari (UN NQAF) talablari asosida ma'muriy ma'lumlardan rasmiy statistika maqsadlarida foydalanishda dolzarblik, aniqlik, to'liqlik, o'z vaqtidalik, muvofiqlik, izchillik va qayta foydalanishga yaroqlilik mezonlari ishlab chiqiladi. - ma'muriy ma'lumlarni statistik kuzatuvlarga integratsiyalash jarayonida ma'lumotlar bazalarini uyg'unlashtirish, klassifikatorlar va kodifikatorlarni birxillashtirish bo'yicha yagona normativ-uslubiy bazaviy reglament yaratiladi. - ma'lumotlar sifati bo'yicha hamkorlik memorandumlari" asosida statistik idoralar va ma'muriy ma'lumotlar egalari o'rtasida sifat nazorati bo'yicha doimiy monitoring va qayta aloqa (feedback) tizimi joriy etiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Milliy statistika qo'mitasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Milliy statistika qo'mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Milliy statistika qo'mitasi qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.